



## O'zbekistonda so'z va fikrlash erkinligi huquqini ta'minlashning davlat siyosati: konstitutsiyaviy va institutsional asoslar

**Karimov Komron  
Muxtorjonovich**

*Farg'ona davlat universiteti Tarix  
fakulteti Yurispridensiya yo'nalishi  
24-75 guruh talabasi*

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqola O'zbekiston Respublikasida so'z va fikrlash erkinligi huquqini ta'minlashning davlat siyosati va huquqiy mexanizmlarini kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – so'z va fikrlash erkinligini ta'minlashning konstitutsiyaviy, qonuniy va institutsional asoslarini o'rganish, amalda mavjud bo'lgan yutuqlar va duch kelinayotgan muammolarni aniqlash, xalqaro tajriba asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil va huquqiy norma tahlili kabi ilmiy usullar qo'llangan. Maqolada, birinchi navbatda, ushbu huquqning xalqaro-huquqiy asoslari, jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro hujjatlardagi o'rni yoritilgan. O'zbekiston konstitutsiyaviy rivojlanishining turli bosqichlarida, ayniqsa, 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada so'z va fikrlash erkinligi qanday ifodalanganligi tahlil qilinadi. Mustaqillikdan keyingi davrda qabul qilingan "Axborot erkinligi to'g'risida", "Matbuot va ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunlar, "Davlat va jamiyat hayotining ochiqqligi to'g'risida"gi qonun kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ularning amalda qo'llanilishi hamda sud-huquq tizimining roli o'rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda ushbu sohada sezilarli huquqiy islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, erkinlikning amaliy tatbiqi va qo'llanishida ma'lum qiyinchiliklar mavjud. Jumladan, raqamli fazodagi erkinlik, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi, huquqni muhofaza qilish organlarining amaliyoti va fuqarolik jamiyati institutlarining salohiyati masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda. Maqolada davlatning ushbu sohadagi siyosatini yanada samaraliroq amalga oshirish, xalqaro standartlarga to'liq moslashtirish, jamiyatning barcha qatlamlarida huquqiy madaniyatni oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Erkinlikning mutlaq emas, balki ma'suliyat bilan birga kelishi, huquq va burch muvozanatini ta'minlash zarurligi alohida ta'kidlanadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati, ushbu muhim huquqni himoya qilish va rivojlantirish bo'yicha davlat organlari, nodavlat tashkilotlar va ilmiy hamjamiyat uchun amaliy tavsiyalar tayyorlashdan iborat.

|                       |                                                                                                                                                                                                                           |
|-----------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Kalit soʻzlar:</b> | soʻz erkinligi, fikrlash erkinligi, inson huquqlari, Oʻzbekiston Konstitutsiyasi, axborot erkinligi, ommaviy axborot vositalari, huquqiy islohotlar, demokratik jamiyat, fuqarolik jamiyati, xalqaro-huquqiy standartlar. |
|-----------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

## Kirish

Soʻz va fikrlash erkinligi har qanday demokratik jamiyatning asosini tashkil etuvchi, inson qadr-qimmati va ijodiy salohiyatini namoyon etishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanib, bu erkinlik nafaqat shaxsning oʻzini ifoda etish imkoniyatini, balki jamiyatning sogʻlom rivojlanishi, davlat boshqaruvining shaffofligi va fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etishining asosiy shartlaridan biridir. Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, inson huquqlari va erkinliklarini, jumladan, soʻz va fikrlash erkinligini keng miqyosda tan oluvchi va himoya qiluvchi huquqiy baza yaratish yoʻlida muhim qadamlar tashladi. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada “Inson manfaatlar — hamma narsadan ustun” tamoyili mustahkam poydevor sifatida belgilandi va inson huquqlarini himoya qilish davlatning asosiy vazifasiga aylantirildi. Biroq, mazkur huquqni amalda hayotga tatbiq etish, uning huquqiy normalari bilan amaliyot oʻrtasidagi muvozanatni topish, shuningdek, yangi global muammolar, xususan, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida ushbu erkinlikni himoya qilishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masala boʻlib qolmoqda. Mazkur maqola Oʻzbekistonda soʻz va fikrlash erkinligini taʼminlashning huquqiy, institutsional va amaliy jihatlarini oʻrganish, rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va xalqaro tajriba asosida takliflar ishlab chiqishni maqsad qilgan. Tadqiqot ushbu huquqning konstitutsiyaviy va qonuniy asoslarini tahlil qilish, ijtimoiy-siyosiy madaniyatning uning amalga oshishiga taʼsirini oʻrganish, sud-huquq tizimi va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini baholash, shuningdek, erkinlik va maʼsuliyat, huquq va burch muvozanatini saqlash mexanizmlarini takomillashtirish yoʻllarini izlashni oʻz ichiga oladi.

## Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu ilmiy maqolada mavzuni har tomonlama va chuqur oʻrganish maqsadida bir qator ilmiy tadqiqot usullari qoʻllanildi, birinchi navbatda, **tarixiy-qiyosiy tahlil usuli** yordamida soʻz va fikrlash erkinligi tushunchasining xalqaro-huquqiy evolyutsiyasi, shuningdek, Oʻzbekistonning Konstitutsiyaviy rivojlanishida ushbu huquqning oʻzgarishi va takomillashishi jarayonlari oʻrganildi, bu esa mavzuning nazariy asoslarini yoritish, Oʻzbekiston tajribasini tarixiy kontekstda joylashtirish va boshqa davlatlar, ayniqsa, demokratik anʼanalarga ega boʻlgan mamlakatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilish imkonini berdi. **Tizimli tahlil usuli** yordamida soʻz va fikrlash erkinligini tartibga soluvchi Oʻzbekiston qonunchiligidagi turli meʼyoriy-huquqiy hujjatlar (Konstitutsiya, qonunlar, prezident farmonlari, vazirlar mahkamasi qarorlari va boshqalar) oʻzaro bogʻliqligi va mantiqiy izchilligi nuqtai nazaridan tadqiq etildi, ularning ichki muvofiqligi va xalqaro standartlarga mosligi baholandi. **Huquqiy norma tahlili** (dogmatik usul) asosida ushbu erkinlikni bevosita belgilovchi va tartibga soluvchi Konstitutsiya moddalari, qonun normalari, ularning mazmuni, qoʻllash doirasi, cheklavlari va kafolatlariga tahlil qilindi, bu esa huquqiy bazaning

kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga xizmat qildi. **Sotsiologik usullardan** foydalanib, mavzu bo'yicha mavjud ijtimoiy so'rovlar, statistika ma'lumotlari, nodavlat tashkilotlar hisobotlari va ommaviy axborot vositalari materiallari tahlil qilindi, bu erkinlikning jamiyat hayotidagi amaliy aks etishi, fuqarolar va davlat organlari tomonidan idrok etilishi, duch kelinayotgan muammolar haqida real tasavvur hosil qilish imkonini berdi. **Mantiqiy umumlashtirish usuli** yordamida olingan barcha ma'lumotlar va tahlillar asosida xulosalar chiqarildi, muammolar aniqlandi va ularni bartaraf etish yo'llari, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi, bu esa tadqiqotning amaliy natijasini shakllantirdi.

### **Tadqiqot natijalari**

O'zbekiston Respublikasida so'z va fikrlash erkinligi huquqini ta'minlashning huquqiy asoslari tobora mustahkamlanishi, 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ushbu huquqqa oid qoidalarining ancha kengayishi va aniqlashuvida namoyon bo'ladi, ya'ni Konstitutsiyaning 20-moddasida har bir shaxsning fikr va gapirish erkinligi, shuningdek, ma'lumot olish va tarqatish erkinligi kafolatlangan, 33-moddasida esa ommaviy axborot vositalari erkinligi, tsenzuraning taqiqlanishi mustahkamlanib, davlat tomonidan axborot erkinligini, ommaviy axborot vositalarini erkin faoliyat yuritishini ta'minlash majburiyati belgilandi, bu esa inson manfaatlarini ustun qo'yish tamoyilining amaliy ko'rinishi hisoblanadi. Konstitutsiyaviy kafolatlar "Axborot erkinligi to'g'risida", "Matbuot va ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunlar, "Davlat va jamiyat hayotining ochiqligi to'g'risida"gi qonun kabi maxsus qonunlar bilan chuqurlashtirilgan bo'lib, ular orqali fuqarolarning davlat organlari faoliyati haqida ma'lumot olish huquqi, matbuot erkinligi, jurnalistlarning huquqlari va kafolatlari, shuningdek, axborotning oshkoralik va ochiqligi tamoyillari aniq belgilab berilgan. Shu bilan birga, qonunchilikda ushbu erkinlikni cheklashning aniq huquqiy asoslari ham nazarda tutilgan, ya'ni milliy xavfsizlik, jamoat tartibi, aholi salomatligi, axloq normalari, boshqalarning huquq va obro'-e'tiborini himoya qilish maqsadlarida va faqat qonunga muvofiq holdagina cheklovlar joriy etilishi mumkin, bu esa erkinlik va ma'suliyat muvozanatini ta'minlashga qaratilgan. Institutsional jihatdan so'z va fikrlash erkinligini himoya qilishda sud-huquq tizimi muhim rol o'ynaydi, Konstitutsiyaning 15-moddasida uning oliy yuridik kuchga egaligi va bevosita amal qiluvchanligi belgilangan, bu esa fuqarolarning buzilgan huquqlari, jumladan, so'z erkinligini tiklash uchun sudga murojaat qilish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Fuqarolik jamiyati institutlari – nodavlat notijorat tashkilotlari, jurnalistlar uyushmalari, mustaqil ekspertlar va ommaviy axborot vositalari ham ushbu sohada davlat siyosatini muhokama qilish, fuqarolarning huquqlari buzilgan holatlar haqida ogohlantirish va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish orqali faol ishtirok etmoqda, bu esa "Inson manfaatlari — hamma narsadan ustun" tamoyilini amalga oshirishda muhim omil sifatida qayd etilgan. Biroq, amaliyotda ba'zi qiyinchiliklar va ziddiyatli holatlar ham kuzatiladi, xususan, raqamli fazoda axborot erkinligi va uni tartibga solish masalalari, davlat buyurtmasi asosida ishlayotgan ommaviy axborot vositalari mustaqilligining cheklanganligi, ma'lum hollarda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan norozilik namoyishlarini tartibga solishda qonun normalarini noto'g'ri talqin qilish, shuningdek, ayrim hollarda jurnalistlarga nisbatan bosim o'tkazilishi haqidagi shikoyatlar mavjud. Madaniyat va san'at sohasidagi erkin

ijodga qaratilgan siyosat, jumladan, 2025-yildan boshlab madaniyat sohasi xodimlarining ish haqlarini oshirish, “Milliy qahramon” va “Inson qadri uchun” kabi mavzularda spektakllar yaratish dasturlari, teatrlar va muzeylarni rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar ijod erkinligini rag'batlantirishning amaliy ko'rinishi hisoblanadi. Xalqaro hamkorlik sohasida O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YuNESKO kabi tashkilotlar faoliyatida ishtirok etib, ta'lim, fan va madaniyat sohasidagi hamkorlik orqali tinchlik va o'zaro tushunishni rivojlantirishga hissa qo'shmoqda, bu esa turli madaniyat va e'tiqodlar o'rtasida hushmuomala va o'zaro hurmat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

### **Muhokama**

O'zbekistonda so'z va fikrlash erkinligi huquqini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, 2023-yilgi Konstitutsiyadagi o'zgarishlar va qonuniy normalarning takomillashuvi ijobiy yo'nalish sifatida baholanishi kerak, chunki ular ushbu asosiy huquqning huquqiy bazasini sezilarli darajada mustahkamlaydi va xalqaro standartlarga yaqinlashtiradi. Biroq, qonuniy normalarning mavjudligi va ularning amalga samarali qo'llanilishi o'rtasida ma'lum farq mavjudligini tan olish kerak, bu esa amaliy muammolarni hal qilish, huquqiy ong va madaniyatni oshirish, shuningdek, nazorat va javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Xususan, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi sharoitida “axborot erkinligi” va “axborot xavfsizligi” o'rtasidagi muvozanatni topish dolzarb masalaga aylanmoqda, chunki bir tomondan, internet fuqarolarga fikrlarini erkin bildirish, axborot almashish va jamoa muhokamalarida ishtirok etish uchun benazir imkoniyatlar yaratsa, ikkinchi tomondan, soxta axborot (fake news), qo'rqitish, o'ziga xos “psixologik urush” vositalari tarqalishi, milliy xavfsizlik va jamoat tartibiga tahdid solishi mumkin, shuning uchun davlat ushbu sohani tartibga solishda zamonaviy, aniq va ochiq me'yoriy-huquqiy asoslar yaratishi, shu bilan birga, fuqarolarning huquqlariga asossiz aralashishdan saqlanishi lozim. Ommaviy axborot vositalari erkinligi va mustaqilligi masalasi ham muhimdir, chunki matbuot ko'pincha “demokratiyaning to'rtinchi vakolati” sifatida qaraladi va uning haqiqiy mustaqilligi, obyektivligi va ko'p ovozliligi jamiyatning sog'lom rivojlanishi uchun zarur, O'zbekistonda davlat tomonidan nodavlat teatrlarga buyurtma berish, teatr tanqidchilari va dramaturglar klubini tashkil etish kabi chora-tadbirlar ommaviy axborot vositalari sohasiga ham tatbiq etilishi, ya'ni turli mulkchilik shaklidagi va turli qarashlarni ifodalovchi OAVlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash orqali axborot maydonining rang-barangligini oshirish mumkin. Sud-huquq tizimi muhim rol o'ynasa-da, uning samaradorligi sudyalarning haqiqiy mustaqilligi, huquqni qo'llash amaliyotining bir xilligi va sud ishlarining oshkorligi kabi omillarga bog'liq, ya'ni Konstitutsiyada belgilanganidek, “inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson manfaatlari yo'lida hal etilishi” prinsipini sud amaliyoti ham izchil qo'llashi kerak. Ta'lim va madaniyat sohasidagi islohotlar, xususan, madaniyat va san'at sohasi xodimlarining ish haqini ish samaradorligi (KPI) ko'rsatkichlariga bog'lash, yangi asarlar yaratishni rag'batlantirish, shuningdek, YuNESKO bilan hamkorlikda madaniy merosni saqlash va rivojlantirish uzoq muddatda ijodiy erkinlik va fikrlash madaniyatini yuksaltirishga

xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda so'z va fikrlash erkinligini ta'minlash siyosati ijobiy rivojlanish yo'lida bo'lsa-da, uning samaradorligini oshirish uchun huquqiy normalarni amaliyotga tatbiq etish, davlat organlari va fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlarini faollashtirish, xalqaro tajribani o'rganish va o'zlashtirish, shuningdek, erkinlik va ma'suliyat, shaxs huquqlari va jamoatchilik manfaatlari o'rtasidagi nozik muvozanatni doimo nazorat qilib borish zarur.

### **Xulosa**

Demak, O'zbekiston Respublikasida so'z va fikrlash erkinligi huquqini ta'minlash bo'yicha davlat siyosati izchil va tizimli ravishda amalga oshirilmogda, bu siyosatning asosini Konstitutsiyaviy islohotlar va qonunchilikdagi o'zgarishlar, shuningdek, "Inson manfaatlari — hamma narsadan ustun" tamoyiliga asoslangan yondashuv tashkil etadi. 2023-yilgi Konstitutsiyaning yangi tahriri ushbu huquqni kengaytirish va mustahkamlash, uning bevosita amal qiluvchanligini, shuningdek, davlatning uni himoya qilish majburiyatini belgilab berdi. "Axborot erkinligi to'g'risida", "Matbuot va ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunlar, madaniyat sohasidagi islohotlar va xalqaro hamkorlik ushbu yo'nalishdagi amaliy tadbirlardir. Biroq, mazkur sohada bir qator muammolar ham mavjud bo'lib, ular qatoriga raqamli fazoda axborot erkinligini tartibga solishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish, ommaviy axborot vositalarining haqiqiy mustaqilligi va ko'p ovozliligini ta'minlash, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sud tizimining amaliyotini takomillashtirish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish kiradi. Erkinlikning mutlaq emas, balki ma'suliyat bilan bog'liq ekanligini, u boshqalarning huquqlari, jamoat tartibi va milliy xavfsizlik manfaatlari bilan muvozanatlashishi kerakligini yodda tutish lozim. Kelajakda ushbu sohadagi siyosatni samaraliroq qilish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi: birinchidan, qonunchilik bazasini, ayniqsa, raqamli muhitda axborot munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish; ikkinchidan, jurnalistlar va barcha ommaviy axborot vositalari uchun teng va adolatli ishlash sharoitlarini yaratish, ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash; uchinchidan, sud tizimining mustaqilligi va ob'ektivligini oshirish, fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda uning samaradorligini kuchaytirish; to'rtinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish va ularning davlat siyosatini muhokama qilishdagi rolini kuchaytirish; beshinchidan, ta'lim va madaniyat sohalarida erkin fikrlash, tanqidiy mulohaza yuritish madaniyatini o'stirishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish; oltinchidan, xalqaro tajribani o'rganish va tegishli xalqaro shartnoma va rekomendatsiyalarni amalda qo'llashni davom ettirish. Faqatgina huquqiy normalarning takomillashuvi, institutsional mexanizmlarning samaradorligi va jamiyatning huquqiy ongi o'rtasida uyg'unlik mavjud bo'lgandagina so'z va fikrlash erkinligi haqiqiy demokratik qadriyatga aylanadi va inson qadr-qimmatini, jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan kuchga ega bo'ladi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahrir). – Toshkent, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Matbuot va ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat va jamiyat hayotining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent.
5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948). Birlashgan Millatlar Tashkiloti.
6. Ozod Tillaboyevich Xusanov. “Konstitutsiya va inson huquqlari”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.
7. O‘zbekiston Liberal-Demokratik partiyasi dasturi. – Toshkent.
8. Madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi (2025-2030). O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi.
9. O‘zbekiston Respublikasining YuNESKO bilan hamkorligi. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.